QASHQADARYO VILOYATI
QAMASHI TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

180500, Qamashi shahri, Amir Temur ko‘chasi, 1-uy. Tel: (375) 53-24-490, t.qamashi@exat.uz

2024 - yil 30 - may 171-4-58-Q/24 Qamashi tuman hokimligi

Qamashi tumanidagi yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni turar-joy bilan ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 - yil 9 - avgustdagi “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni davlat tomonidan qo‘llab - quvvatlashning yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5216-sonli qarori hamda “Mehr daftariga” kiritilgan yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi Vasiylik Kengashining 2024-yil 9-apreldagi B-01-19/112-sonli yig‘ilish bayoni ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Qamashi tumani hokimligida uy-joyga muhtoj bo‘lgan yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning uy-joy bilan ta’minlash bo‘yicha murojaatlari ijro uchun qabul qilinsin.

2. Uy-joyga muhtoj bo‘lgan ota-ona qaramog‘isiz qolgan Ro‘ziyeva Sitora Eshdavlat qiziga Qamashi tumani, Do‘stlik MFY, 2-mitti tuman 12-uy 2-xonadonni doimiy yashash uchun rasmiylashtirilib berilsin.

3. Ro‘ziyeva Sitora Eshdavlat qiziga berilayotgan mazkur turar - joy O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5216-sonli qarorida belgilangan quyidagi talablar asosida: yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarga uy-joylar mulkka egalik qilish huquqi asosida, biroq ular 30 yoshga to‘lgunga qadar uy-joyni sotish, hadya qilish yoki garovga qo‘yish yoxud ijaraga berish hamda uy-joyda o‘zi va oila a’zolari (eri yoki xotini, farzandlari)dan tashqari boshqa fuqarolarni doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish huquqisiz: bunda, yetim bola yoki ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolaning asoslantirilgan murojaati asosida mahalliy hokimliklar tomonidan uy-joyning umumiy maydonini kengaytirish va mazkur bandda nazarda tutilgan talablarni saqlab qolish sharti bilan sotishga ruxsat berilsin.

4. Kadastrlar palatasi Qamashi tumani filiali (Botirov)ga mazkur turar-joyga belgilangan tartibda taqiq qo‘yish vazifasi yuklansin.

5. Tuman ichki ishlar bo‘limi (Rahimov)ga ushbu qaror asosida uy-joy ajratilayotgan fuqarolarni o‘rnatilgan tartibda qisqa muddatlarda mazkur turar joylarga doimiy ro‘yxatga qo‘yish bo‘yicha zaruriy choralarni ko‘rish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Asos: *“Mehr daftariga” kiritilgan yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni qo‘llab quvvatlash jamg‘armasi Vasiylik Kengashining 2024-yil 9-apreldagi B-01-19/112-sonli yig‘ilish bayoni.*

Tuman hokimi **X.Usmonov**